Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK 316.42(575.1)
ORCID: 0009-0008-8549-6813
QUDRATOV NAMOZ TOJIMURODOVICH
Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix kafedrasi o'qituvchisi
E-mail:namozkudratov@gmail.com

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY SOHADAGI OLIB BORILGAN O'ZGARISHLAR

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mustaqilikka erishganimizdan so'ng Surxon vohasi hududida amalga oshirilgan ijtimoiy sohadagi hamda ta'lim tizimidagi islohotlar, ijtimoiy soha bo'yicha qanday ishlar olib borilganligi, ta'lim tizimini rivojlantirish va aholini sifatli ta'lim jarayoni bilan ta'minlash borasida qanday tadbirlar tashkil etilganligi kabi masalalarga to'xtalib o'tamiz. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilgan islohotlar hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, ta'lim tizimini takomillashtirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kambag'allikni qisqartirish, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va mahalla institutining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati yoritilgan. Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni uyda yakka tartibda o'qitish tizimi, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" kabi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliy natijalari Termiz shahri misolida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, Prezident maktablari hamda oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ilmiy asosda tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari mamlakatda olib borilgan ijtimoiy islohotlar aholi turmush darajasini oshirish, yoshlarning sifatli ta'lim olishi va fuqarolar farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

KALIT SO'ZLAR: *Xalq ta'lim tizimi, farmonlar, qarorlar, "Temir daftar", litsey, maktabgacha ta'lim tashkiloti, mahalla faoliyati.*

ИЗМЕНЕНИЯ В СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЕ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются реформы, проведенные в социальной сфере Узбекистана в годы независимости, и их значение для развития общества. В частности, освещается государственная политика, направленная на совершенствование системы образования, усиление социальной защиты населения, сокращение бедности, развитие системы здравоохранения и повышение эффективности работы районных институтов. В статье представлены практические результаты системы индивидуального домашнего обучения детей-инвалидов, таких как «Женская тетрадь», «Молодёжная тетрадь» и «Железная тетрадь», на примере города Термез. Также на научной основе анализируются изменения в системе академических лицеев, профессиональных училищ, президентских школ и высшего образования. Результаты исследования показывают, что проведенные в стране социальные реформы служат важным фактором повышения уровня жизни населения, обеспечения качественного образования для молодежи и благополучия граждан.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Система народного образования, указы, постановления, «Железная тетрадь», лицей, дошкольная образовательная организация, дворовая деятельность.*

CHANGES IN THE SOCIAL SPHERE OF THE SURKHAN OASIS

ABSTRACT. This article analyzes the social reforms implemented in Uzbekistan since independence and their significance for the development of society. In particular, it highlights state policies aimed at improving the education system, strengthening social protection, reducing poverty, developing the healthcare system, and increasing the efficiency of district institutions. The article presents the practical results of individual home education systems for children with disabilities, such as «Women's Notebook», «Youth Notebook», and «Iron Notebook», on the example of the city of Termez. It also presents a scientific analysis of changes in academic lyceums, vocational schools, presidential schools, and the higher education system. The results of the study show that the social reforms implemented in the country serve as an important factor in raising living standards, ensuring high-quality education for young people, and ensuring the well-being of citizens.

KEYWORDS: *Public education system, decrees, resolutions, «Iron Notebook», lyceum, preschool educational organization, neighborhood activities.*

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakat hayotining barcha jabhalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash hamda fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu bilan birga, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifatini oshirish masalalari jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash va ularning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va Sog'liqni saqlash vazirliklarining qo'shma qarori asosida ishlab chiqilgan hamda 2015-yil 30-iyunda Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Nizom uyda yakka tartibda ta'lim oladigan o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish tartibini belgilab berdi. Termiz shahri umumta'lim maktablarida ham uy sharoitida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun zarur pedagogik va psixologik sharoitlar yaratilgan bo'lib, ularning o'quv jarayonlari mutaxassislar nazorati ostida olib borilmoqda. Bu o'quvchilarga ta'lim olishlari uchun Xalq ta'limi bo'limi tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan [1] .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Termiz shahar xalq ta'limi muassasalarida 2020-yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha O.N. Sadatov ma'lumoti tahlili Mazkur manba Termiz shahridagi xalq ta'limi tizimining amaliy faoliyatini yorituvchi muhim statistik va tahliliy material hisoblanadi. Unda 2020-yil davomida umumta'lim muassasalarida olib borilgan tashkiliy, o'quv-uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, ta'lim sifatini oshirish, maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda pedagog kadrlarning malakasini oshirish masalalari asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu manbaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda hududiy ta'lim tizimining real holati amaliy misollar asosida yoritiladi. 2020-yilda pandemiya sharoitida ta'lim tizimida yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham muhim tahliliy material vazifasini bajaradi. Shu jihatdan mazkur ma'lumotlar hududiy ta'lim siyosatini o'rganishda birlamchi manba sifatida katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ushbu hujjat orqali Termiz shahridagi maktablarning faoliyati, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qamrovi va ta'lim sifati ko'rsatkichlarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa maqolada xalq ta'limi tizimidagi islohotlarning mahalliy natijalarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Hududlarni kompleks rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish maqsadida davlat tomonidan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ–3182-son qaroriga muvofiq hududlarni sektorlar asosida boshqarish tizimi joriy qilinib, xalq bilan manzilli ishlash mexanizmi shakllantirildi. Mazkur tizim aholi murojaatlarini o'rganish va muammolarni joyida hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tizim xalq bilan manzilli muloqotning yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi[2].

Mamlakat taraqqiyotining turli davrlarida yuzaga kelgan muammolar yechimi ishlab chiqilib, aniq shart-sharoitlar taqozosiga binoan amalga oshirildi. Pandemiya sharoitida ijtimoiy jihatdan himoyalanishga muhtoj oilalarning jami oilalardagi ulushi 8,0 foizdan 21,0 foizgacha ortdi. Pandemiya davrida aholining ijtimoiy himoyaga ehtiyoji sezilarli darajada ortdi. Shu sababli kambag'allikni qisqartirish, ishsizlikni kamaytirish va fuqarolarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga qaratilgan yangi mexanizmlar ishlab chiqildi.

Xususan, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" tizimlari orqali ehtiyojmand oilalar va fuqarolarni qo'llab-quvvatlash ishlari yo'lga qo'yildi. Termiz shahrida ham ushbu tizimlar asosida ishsiz fuqarolarni band qilish, subsidiya va moddiy yordam ajratish, tomorqachilik hamda issiqxona faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish va ish bilan taminlanmagan hamda mehnatga layoqatli aholini tadbirkorlikka jalb etish maqsadida, shahar sharoiti bo'lsa ham, 2020-yilda 24-nafar fuqarolar bo'sh turgan tomorqadan foydalanib, o'zini o'zi band qilishlari uchun issiqxonalar qurib berildi. Buning uchun 160,8 million so'm pul mablag'lari ajratildi, 42 nafar fuqarolar tomorqalaridan foydalanish uchun sug'orish vositalariga 93,6 million so'm pul mablag'lari ajratilib, sug'orish vositalari yetkazib berildi. 2021-yilda 637 nafar ishsizlarga ishsizlik nafaqasi to'lab berildi. Shu jumladan, "Ayollar daftari" ga kiritilgan 89 nafar, "Yoshlar daftari" ga kiritilgan 76 nafar fuqarolarga hamda "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 43 nafar a'zolariga ishsizlik nafaqasi tayinlanib ijtimoiy himoyaga olindi.

Mahalla faoliyati nafaqat son jihatdan, balki sifat jihatdan tubdan o'zgardi. Aholining bandligini ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish va daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi[3]. Mahalla institutining jamiyat hayotidagi o'rni ham yangi bosqichga ko'tarildi. "Mahallabay" ishlash tizimi orqali aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini yaratish va kambag'allikni kamaytirishga

alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda mahallalarda "hokim yordamchisi" lavozimi joriy etilib, fuqarolar muammolarini bevosita hududning o'zida hal qilish mexanizmi yo'lga qo'yildi[4].

Istiqlol yillarining dastlabki yillaridan ma'rifiy ishlarga katta e'tibor berildi. Jumladan, "Bilim" jamiyati shahar ziyolilarining ma'rifiy uyushmasiga aylantirildi. Uyushma ikki yillik arab tili, olti oylik eski o'zbek yozuvi, o'zbek tilida ish yuritish, chet tillarni o'rganish kurslarini tashkil etdi. Termiz shahrining ilmiy markaz sifatida yuksalishini ta'minlash maqsadida 1992-yil may oyida Arxeologiya institutining Surxondaryo bo'limi tashkil etildi. Surxondaryo viloyat hokimi H.Berdiyevning 1992-yil 20-iyuldagi №144-F farmoyishiga binoan Arxeologiya institutining Surxondaryo bo'limiga Termizda faoliyat ko'rsatayotgan V.I.Lenin muzeyi binosi bepul olib berildi[5].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mustaqillik yillarida ta'lim va ma'rifat sohasida ham muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida uzluksiz ta'lim tizimi takomillashtirildi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qator qarorlar qabul qilinib, yoshlarning kasbiy bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Termiz shahrida tashkil etilgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hudud iqtisodiyoti uchun malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirildi. 1998-yil 24-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida"gi 77-son Qarori qabul qilindi. Akademik litseyni bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan diplom beriladigan va u ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan ixtisoslik bo'yicha ishlash imkoniyati berildi.

Termiz shahrida qurilish litseyi o'rnida tashkil etilgan Oziq-ovqat sanoati kasb-hunar kolleji qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari uchun mutaxassis tayyorlashga ixtisoslashtirildi. 1998-yil 19-mayda Termiz davlat universiteti qoshida 1-akademik litsey ochildi. Keyinchalik, hozirgi TerDU akademik litseyi 2008-yilda yangi bino qurilishi asosida Termiz davlat universiteti qoshidagi 2-son akademik litsey nomi bilan tashkil etildi. Termiz davlat universiteti 2-son akademik litseyi Nizomi 2018-yil 19-yanvarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 49-sonli raqam bilan tasdiqlanib TerDU akademik litseyi nomiga o'zgartirilgan. Akademik litseylar faoliyati tubdan o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentyabrdagi PQ-3290-sonli "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida qarori"ga asosan quyidagi o'zgarishlar vujudga keldi hamda akademik litsey o'qituvchi va o'quvchilariga bir qancha imkoniyatlar yaratilishi bilan birga bir qator vazifalar ham qo'yildi Masalan, yuqoridagi ushbu qarorga asosan 2017-2018-o'quv yilidan boshlab akademik litseylarda o'qish muddati ikki yil etib belgilandi va ularga o'quv-metodik jihatdan rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi[6].

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim muassasalari qurish va yoshlarning sifatli bilim olishiga sharoit yaratish masalalariga ham katta e'tibor qaratildi. Xususan, Termiz shahrida yangi turdagi ta'lim muassasalari, jumladan Prezident maktabi va xususiy maktablar faoliyat boshladi. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur mablag'lar ajratildi.

Maktabgacha ta'limi tizimida Termiz shahrida 2017-yilda faqat 27 davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatar edi. Termiz shahrida 1992-yilda 42 ta maktabgacha muassasa faoliyat ko'rsatib, ularga 7255 bolalar jalb etilgan edi[7]. 2002-yilga kelib ularning soni 34 taga, tarbiyalanuvchilar soni 3680 nafarga tushib qoldi[8]. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida iqtisodiy muammolar natijasida korxonalar tasarrufidagi bolalar muassasalari davlat byudjeti hisobiga olindi.

2021-yilda moddiy-texnika bazasi jahon standartlariga mos bo'lgan 40 mlrd. so'mlik yangidan "Prezident maktabi" qurilib, foydalanishga topshirildi. Shaharda tashkil etilgan 2 ta xususiy maktablar ingliz tilini o'rgatishga ixtisoslashtirildi[9]. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida shaharda tizimli ishlarni amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilanib, ta'lim muassasalarini zarur jihozlari va kitoblar bilan ta'minlash uchun 434 million so'm mablag' ajratildi

XULOSA. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil ravishda amalga oshirildi. Xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kambag'allikni kamaytirish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish borasida muhim natijalarga erishildi. Oliy ta'lim tizimida yoshlarga kenG imkoniyatlar yaratilib, oliy ta'lim bilan qamrov darajasi oshirildi. Shu bilan birga, tibbiyot sohasida zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan yangi muassasalar barpo

ISSN: 3060-4761

etildi hamda mavjud shifoxonalar rekonstruksiya qilindi. Termiz shahrida viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi huzurida zamonaviy tibbiyot klasteri hamda onkologiya markazi filialining qurilishi boshlanganligi hudud sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-martdagi 172-son qaroriga asosan Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali tashkil etilib, hudud uchun malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash imkoniyati kengaydi. Umuman olganda, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar mamlakat taraqqiyoti, fuqarolar farovonligi va inson manfaatlarini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Termiz shahar xalq ta'limi muassasalarida 2020 yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Termiz shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri O.N.Sadatov ma'lumoti.

2.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 32-son, 802-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2018-y., 06/18/5329/0846-son, 06.03.2018-y., 06/20/5370/0975-son; 09.01.2019-y., 07/19/4102/2434-son; 29.06.2020-y; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son.

3.Markaziy bank asosiy stavkasini kurib chikish buyicha pul-kredit siyosati taxlili. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. - T. 2020 yil 23 iyul. https://cbu.uz/upload/iblock/3cd/Markaziy-bank-asosiy-stavkasini-ko'rib-chiqish-bo'yicha-Pul_kredit-siyesati-tahlili. pdf (Murojaat sanasi: 17.03.2021 y.)

4.Termiz shahar hokimligi arxivi. Shahar hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar, turizm va sportni rivojlantirish masalalari bo'yicha majmuasi. Yig'ma jild № 05-22 Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi shahar Kengashi hujjatlari.2021- yil dekabr.

5.Termiz shahar hokimligi arxivi. Shahar hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar, turizm va sportni rivojlantirish masalalari bo'yicha majmuasi. Yig'ma jild № 05-22 Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi shahar Kengashi hujjatlari. 2021-yil dekabr.

6.Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1092 -fond. 1-ro'yxat, 2-ish, 1-varaq.

7.Termiz shahar hokimligi arxivi. Termiz shahar hokimligi boshqaruvi Yig'majild № 01-07. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari. 2017 -yil sentyabr.

8.Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091 -fond. 1-ro'yxat, 191-ish, 69-varaq.

9. Termiz shahar hokimligi arxivi.Yig'ma jild № 05-30. Nodavlat ta'lim muassasalarining chet tillarini o'rganish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish sohasiga oid hujjatlari.2020-yil dekabr.